

**YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA NIKOH OLDI OMILLARI
MUAMMOSI**

R.Nuriddinov

Fargʻona davlat universiteti Psixologiya kafedrası oʻqituvchisi

B.Bahodirov

Amaliy psixologiya yoʻnalishi talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yoshlarning oilaviy hayotga tayyorlashda nikoh oldi omillarining oʻrni, ahamiyati yoritiladi. Bundan tashqari nikoh qurishda hozirgi kundagi motivlar, mamlakatimizning demografik holati, yangi tuzulgan nikohlar soni, ajrimlarning hududiy jihatdan soni keltirib oʻtilgan.*

Tayanch soʻz va iboralar: *nikoh, omil, ajrim, nikoh yoshi, yetuklik, motiv, stereotip, axloq, jamiyat.*

Аннотация. *В данной статье освещается роль и значение добрачных факторов в подготовке молодых людей к семейной жизни. Кроме того, при заключении брака были указаны мотивы настоящего времени, демографическая ситуация в нашей стране, количество вновь заключенных браков, территориальное количество разводов.*

Основные слова и фразы: *брак, фактор, решение, брачный возраст, зрелость, мотив, стереотип, мораль, общество.*

Annotation. *This article highlights the role and importance of premarital factors in preparing young people for family life. In addition, when concluding a marriage, the motives of the present time, the demographic situation in our country, the number of newly concluded marriages, and the territorial number of divorces were indicated.*

Basic words and phrases: *marriage, factor, decision, marriageable age, maturity, motive, stereotype, morality, society.*

Xalqimiz bejizga “Oila — muqaddas dargoh” deb takidlamaydi. Sababi oila vatan ichra vatandir. Ijtimoiy psixologik adabiyotlarga bironan oila birlamchi ijtimoiylashuv maskani sifatida koʻrsatiladi.

Nikoh, oila masalasi Sharq xalqlari hayotidagi eng asosiy eʼtiobrga molik qadriyat sifatida qaralgan. Jamiyatning maʼnan yetuk va jismonan barkamol insonni yetkazib beruvchi manbasi vazifasini oʻtab kelgan. Muqaddas Islom dinida oilaviy munosabatlar, nikohning manfaatlari, er va xotinning burch va vazifalari, oilada farzand tarbiyasi, meros va turli shu kabi oilaviy masalalarga katta ahamiyat qaratilgan. Bu borada qomusiy mutafakkir ajdodlarimiz tomonidan yozilgan risolalar biz uchun muhim manba boʻlib xizmat qiladi.

Sharqu-gʻarbda katta xurmatga sazovor boʻlgan Abu Ali ibn Sinoning “*Tadbir ul-manzil*” nomli risolasida oilaviy munosabatlarga oid takrorlanmas maʼlumot va

nasihatlarini keltiradi. Ushbu risolada oila, uning inson va jamiyat hayotidagi bebaho ahamiyati, oila rahbarining vazifalari, uy-joyni idora etish shartlari, farzand tarbiyasida amal qilinishi lozim bo'lgan jihatlar, juft tanlashda e'tibor qaratish lozim bo'lgan masalalar muhokama qilingan.

Oiladagi o'zaro munosabatlar masalasi tasavvuf falsafasida ham alohida o'rin tutadi. Falsafaning yirik namoyondalaridan bo'lgan Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro tariqatlarida ota va onalar o'zaro munosabatlarining farzandlar kamolotidagi roli, farzandlarning ota-onalarga bo'lgan munosabati mavzui alohida ta'kidlab o'tilganligini ko'ramiz.

Imom al-Buxoriy, imom at-Termiziylarning sahih hadis to'plamlarida ham mazkur mavzuga katta e'tibor berilgan. Qur'oni Karimdan keying asosiy diniy manba bo'lgan – hadislarida Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) aytdilar: “Alloh taoloning rozi bo'lishi ota-onaning rozi bo'lishiga va Allohning g'azabi ham ota-onaning g'azabiga bog'liqdir” (Imom Buxoriy rivoyati).

Haqiqatdan ham ota-onaga ozor bermaslik, ularning dilini vayron qilmaslik, muloyimlik bilan suhbatda bo'lish, ko'nglini ko'tarish aytganlarini vaqtida bajarish, farzandning ota-ona oldidagi burchidir. O'rta asr mutafakkirlaridan Abu Bakr ar-Roziyning (865-925) komil inson tarbiyasida qadriyatlarining o'rni haqidagi qarashlari o'ziga xos o'rin egallaydi. Ar-Roziy o'z asarlarida insonlarda yaxshi xulqni shakllantirish va badxulqlikni yo'qotish yo'llari hamda usullari haqida yozadi, aql bilan ish ko'rishga, hissiyotlarni jilovlay olishga, me'yorida lazzatlanishga, lahzalik lazzatga umrini baxshida qilmaslikka chaqiradi. U inson axloqan pok bo'lishida ijtimoiy omillarga ko'p e'tibor beradi hamda odamni ijtimoiy faollikka, jamiyatga foyda keltirib yashashga chorlaydi.

Yosh avlodni har tomonlama barakamol etib, el-yurt ravnaqi uchun munosib hissa qo'shuvchi avlod sifatida tarbiyalash eng avvalo mustahkam oilani barpo etishdan boshlanadi. Aholining demografik ko'rsatkichlarini yaxshilash har bir rivojlanayotgan jamiyatlarning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi. Mamlakatimizda oila masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Fikrimizning isboti sifatida yurtboshimizning quyidagi fikrlarini keltirib o'tamiz: *“Eng katta baxt, men buni ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch bo'lsin! Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi”*.


Prezidentimizning fikrlari bejizga emas, mamalakatimizda aholining demografik o'sish sur'ati ortib bormoqda. Statistika agentligining ma'lumotiga ko'ra 2024-yilning 1-yanvar holatiga O'zbekistonning doimiy aholisi soni 36,8 million kishi sifatida ko'rsatilgan. 2023-yil yanvar – dekabr oyida tuzulgan nikohlar soni – 283,8 mingta bo'lib, nikohlarning asosiy qismini esa yosh oilalar tashkil etadi.

Shuning bilan birga nikohdan ajralishlar soni – 49,2 mingtani tashkil etgan. Ajralishlar soni esa 2022-yilga nisbatan 1456 ta ko'p. Bu esa yoshlarni oilaviy hayotga

tayyorlash masalasiga e'tibor bilan yondashishga, oila mustahkamligini taminlovchi omillar va muammolarni tadqiq etishni taqazo etadi.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda eng avvalo nikoh oldi omillari borasida ularning tushunchalarini aniqlashtirib olishimiz zarur. Sababi nikohning tashkil etilishida ijtimoiy, iqtisodiy, biologik, fiziologik, siyosiy, axloqiy va psixologik omillarni o'zida mujjasmalashtiradi. Bu ko'p jihatli omillar oila qurayotgan juftlikning oilaviy hayotga qay darajada yetukligini belgilab beradi, nikoh qurish talablariga qay darajada munosibliklarini aniqlashtiradi.

Hozir kunda nikoh qurishdan oldingi omillar sifatida quyidagilar ajratiladi:



Nikoh oldi omillarning har biri turli yosh davrida turlicha xususiyatda bo'lishi mumkin, bundan tashqari ularning har biri o'z navbatida yana bir necha turlarga farqlanishi mumkin. "Nikohga yetuklik" deyilganda odatda aksar insonlar fiziologik, iqtisodiy, jinsiy va huquqiy yetuklikni nazarda tutadi. Misol uchun voyaga yetgan farzandlar haqida ota-onalar *qizimizning yoki o'g'limizning bo'yi yetib qoldi, uylanadigan yoshga kirib qoldi* degan tarifni yuqorida keltirganimiz fiziologik, jinsiy, huquqiy jihatlarni hisobga olgan holda keltirishadi. Lekin nikohga yetuklining iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy va psixologik jihatlarni ham inobatga olish zarur.

Nikohga yetuklikning yoshga xos xususiyatlari ham nikoh mustahkamligini taminlashda muhim ahamiyatga ega. Birgina misol 22-25 yosh oralig'idagi nikohlanuvchilar 22 yoshdan kichik nikohlanuvchilarga nisbatan ko'proq hayotiy tajribaga ega bo'ladilar. Odatda bu yosh oralig'idagi yoshlar oliy o'quv yurtlarini tamomlagan, tamomlash arafasidagi yoki muayyan kasb-hunar faoliyati bilan mashg'ul bo'ladilar.

Nikoh oldi omillaridan keyingisi bu nikoh qurish motivlaridir. Psixologik adabiyotlarda nikoh motivlarining o'ndan ortiq turi farqlanadi. Lekin umumlashtirgan holda uch asosiy motivga ajratishimiz mumkin: sevgi, muhabbat tufayli, moddiy manfaatdorlik tufayli va stereotiplar asosida bo'lishi mumkin.

Oila qurishgacha tanishish muddati keying nikoh oldi omilimizdir. Oila qurishdan oldin bo'lajak er-xotinlar bir-birlarini ma'lum bir muddat bo'lajak er yoki xotin sifatida bilib yursalar, bir-birlarining shaxsiy xususiyatlari, individual sifatlari, qiziqishlari, dunyoqarashlari, shaxsiy yo'nalganliklari haqida adekvatroq tasavvur va ma'lumotlarga ega bo'lsalar, bu tasavvur va ma'lumotlar ularga birgalikdagi hayotlarida bir-birlarini tushunib, bir-birlariga moslashib ketishlariga yordam berishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://daryo.uz/2024/02/09/ozbekistondagi-jami-nikohlar-va-nikohdan-ajralishlar-soni-malum-boldi>
2. Abdullayeva D. - "Sotsial psixologiya"/Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013. 67 b.
3. G'.B. Shoumarov. - OILA PSIXOLOGIYASI. T-"Sharq", 2018 y.
4. Stankov A.G. – Что надо знать до брака. – Питер 2019 г. 35 стр.
5. Оила ахлоқи ва тарбия. Мажмуа. Т. , 1999
6. Кон.И.С. Психология ранней юности. М., 1997 г
- 7.